


**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

**THE STUDY OF PHRASEOLOGISMS IN THE LINGUISTIC ASPECT OF WORLD LINGUISTICS**

Mukhammadiqbol Boborajabov

Lecturer

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: mboborajabov62@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: anthropocentric linguistics, paradigm, linguoculturology, phraseology, aspect, systemic-structural linguistics, phenomenon, emotional expressiveness, personality.

Received: 26.11.23

Accepted: 28.11.23

Published: 30.11.23

Abstract: This article reveals the role of linguoculturology in world linguistics and the opinions of linguists about it. Approaches to the study of linguistic units, especially phraseology, in the linguocultural aspect are covered. To find a solution to this problem, research works on the study of phraseological units in the linguocultural aspect, as well as the opinions of linguists, are reflected.

DUNYO TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY ASPEKTDA O'RGANILISHI

Mukhammadiqbol Boborajabov

o'qituvchi

Oriental universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: mboborajabov62@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: antropotsentrik tilshunoslik, paradigma, lingvokulturologiya, frazeologizm, aspekt, sistem-struktur tilshunoslik, fenomen, emotsiional-ekspressivlik, individ.

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning dunyo tilshunoslida tutgan o'rni, tilshunoslarning u haqidagi fikrlari ochib berilgan. Til birliklarining, ayniqsa frazeologizmlarning lingvomadaniy aspektida tadqiq etishga bo'lgan yondashuvlar yoritilgan. Ushbu muammoga yechim topish maqsadida frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o'rganish masalasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari, shuningdek, tilshunoslarning fikrlari aks ettirilgan.

ИЗУЧЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Мухаммадикбол Бобораджабов
преподаватель
Oriental universiteti
 Ташкент, Узбекистан
 E-mail: mboborajabov62@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, фразеологизм, структурная лингвистика, эмоционально-выразительность, индивид.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль лингвокультурологии в мировой лингвистике и мнения лингвистов о ней. Освещены подходы к изучению языковых единиц, особенно фразеологии, в лингвокультурологическом аспекте. Для поиска решения данной проблемы отражены научно-исследовательские работы по вопросу изучения фразеологизмов в лингвокультурологическом аспекте, а также мнения лингвистов.

KIRISH

Dunyo tilshunosligida XX asrning so‘nggi choragidan boshlab antropotsentrik paradigma yuzaga kelishi munosabati bilan til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish masalasi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu yo‘nalishda qiyosiy-tarixiy va sistem-struktur paradigmalardan farqli ravishda til inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Sistem-struktur tilshunoslikda olib borilgan tadqiqotlarda tildagi munosabatlar tizimi o‘rganilgan bo‘lsa, antropotsentrik tilshunoslikdagi tadqiqotlarda til va inson omilini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda insonning tilga munosabati, tilda insonga xos xususiyatlarning namoyon bo‘lishi masalasini o‘rganish dolzarb muammoga aylandi. Chunki tilni o‘z egasidan ajratgan holda o‘rganish maqsadga muvofiq emas. I. A. Boduen de Kurtene ta’biri bilan aytganda, “til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko‘ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo‘ladi” [1:13].

Antropotsentrik tilshunoslik taraqqiyoti jarayonida uning zamirida yana bir qancha paradigmalar shakllanib bormoqda. Jahon tilshunosligida matnni antroposentrik paradigma asosida o‘rganish, asosan, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko‘zga tashlanadi. Xusan, N.I.Karaulov, V.A.Maslova, V.N.Teliya, G.V.Elizarova, E.S.Kubryakova, A.Vejbitskaya, V.V.Vorobyov, S.Y.Stepanov kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan.

ASOSIY QISM

Antropotsentrik tilshunoslikning eng muhim yo‘nalishlaridan biri lingvokulturologiya bo‘lib, XX asrning 90-yillarida til va madaniyat munosabatini o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlar samarasi o‘laroq vujudga keldi. So‘nggi o‘n yil mobaynida lingvokulturologiya tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Lingvokulturologiya avvalo, tilning xalq madaniyati, milliy-madaniy qarashlari bilan o‘zaro aloqasi masalasini o‘rganadi. Shu sababli lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan sanaladi.

V.N.Teliya qayd etishicha, lingvokulturologiya insonda madaniyat omilini, boshqacha aytganda madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga mansub bilimlar majmuyidir [2:222].

Lingvokulturologiyaga berilgan yuqoridagi tariflardan ko‘rinadiki, til va madaniyat bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Barcha madaniy tushunchalar insonning lisoniy ongida o‘z aksini topadi va madaniy shaxsni shakllantiradi. Madaniyat yagona individning xususiyatlarini ko‘rsatib bermasdan ijtimoiy guruh yoki jamiyat hayot faoliyatini ham o‘zida aks ettirishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida uning xususiy va umumiy xususiyatga ega ekanligini dalillaydi.

Lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti sifatida til birliklari xizmat qiladi. Chunki tilning milliy-madaniy sifatlari aynan til birliklarida aks etadi. Jumladan, frazeologizmlar ham ma’lum bir xalqning madaniyatini o‘rganishda muhim manbadir. Frazeologizmlar obrazlilik va emotsiyal-ekspressivlikni yuzaga keltiradi. Frazeologizmlarni o‘rganishdagi lingvokulturologik yondashuv dunyoning turli tillaridagi obrazli tasvirlarning umumiyligi va milliy-madaniy o‘ziga xosligini aniqlashga yordam beradi.

XXI asr boshlariga kelib til birliklarini lingvokulturologik aspektida o‘rganish masalasiga jiddiy e’tibor berila boshlandi. Rus tilshunoslari tomonidan taqdim etilgan ko‘plab tadqiqotlar bunga misoldir. Rus tilidagi frazeologik birliklarni o‘rganish ularni turli mezonlar bo‘yicha tasniflashni o‘z ichiga oladi. Akademik V.V.Vinogradov va boshqa tilshunoslар frazeologizmlarni uch turga tasniflashni ma’qul ko‘rganlar: frazeologik chatishma, frazeologik butunlik va frazeologik qo‘silma [3:140]. Bundan tashqari A.I.Smirnitskiy ingliz tilidagi frazeologizmlarni struktur-semantik jihatdan tasniflagan. Uning tasnifiga ko‘ra frazeologizmlar bir ma’noli va ko‘p ma’noli frazeologizmlarga bo‘linadi [4:112].

Frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida bir qator olimlar o‘z fikrlarini bildirib o‘tganlar. Jumladan, N.G.Komlev leksik birlikning milliy-madaniy komponenti haqida fikr yuritar ekan, bu belgi til birligining semantikasini shakllantiruvchi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi.

Frazeologizmlar til tizimining alohida birliklari bo‘lib, obyektni obrazli va ta’sirchan nomlashga xizmat qiladi. Frazeologizmlar obyektni turli jihatdan tavsiflashiga e’tiborini qaratgan A.V.Kunin ularni turli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan mikromatn bo‘la olishini ta’kidlaydi [5:130-137]. Albatta A.V.Kunin bu o‘rinda frazeologizmlarning nominativ funksiyasiga juda yuqori baho bergen.

Frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda ko‘plab tilshunoslarning asosiy tadqiqot obyektiga aylandi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqotchilar ushbu masalani turli yondashuvlarda o‘rganmoqdalar. D.O.Dobrovolskiyning fikriga ko‘ra, frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini ikki xil yondashuv orqali aniqlash mumkin:

birinchidan, turli tildagi frazeologizmlarni o‘zaro qiyoslash. Ushbu yondashuvda bir tildagi frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari boshqa til bilan o‘zaro taqqoslanadi, o‘xhash va farqli jihatlari aniqlanadi;

ikkinchidan, bir til doirasidagi turli shevalarda qo‘llaniladigan frazeologizmlar va ularning milliy-madaniy xususiyatlarini tahlil qilish. Ushbu yondashuvga ko‘ra milliy-madaniy omillar til egalarining madaniyatga bo‘lgan munosabati orqali aniqlanadi [6:71]. Bizningcha, frazeologizmlarni bir til doirasida o‘rganishdan ko‘ra turli tillar misolida qiyosan o‘rganish, ularning milliy-madaniy xususiyatlarini to‘liqroq ohib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu masalani noqardosh tillar materiali asosida tadqiq etish, har bir tilga xos farqlanuvchi milliy xususiyatlarni belgilash imkoniyati yanada oshadi.

Bugungi kunda ko‘plab tilshunoslar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlarini o‘rganish avvalambor lingvomamlakatshunolsikni o‘rganishdan boshlanganligi ko‘zga tashlanadi. Lingvomamlakatshunoslikka oid tadqiqotlarda frazeologizmlarning ma’no komponentlariga ta’sir ko‘rsatuvchi ekstralinguistik omillar tavsiflanadi. Ushbu yondashuv orqali frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlarini aniqlash nisbatan faolroqdir. Chunki mamlakat va uning tili haqida ma’lumotga ega bo‘lmasdan madaniyati haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin emas. Shuningdek, frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida tadqiq etishga bo‘lgan yondashuvlar ko‘plab tadqiqotchilarni tildagi milliy etalon, strereotip va ramzlarni o‘rganishga undaydi.

Frazeologizmlarning lingvomadaniy aspektidagi tadqiqi, ayniqsa, rus tilshunosligida mukammal o‘rganilganligini kuzatish mumkin. Jumladan, A.V.Urazmetova “Лингвокультурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц (на материале английского и французского языков)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini ularning tarkibidagi toponimlar misolida ohib berishga harakat qilgan. Uning yondashuviga ko‘ra atoqli otlar o‘zida madaniy xususiyatni aks ettiradi va ular frazeologizmlarni qaysi xalq madaniyatiga mos ekanligini

belgilab beradi. Bundan tashqari u har bir frazeologik birlik olamning lisoniy manzarasini o‘zida aks ettiruvchi madaniy semaga ega ekanligini ta’kidlaydi [7:9].

T.Y.Borisovaning “Лингвокультурологический анализ фразеологических единиц с числовым компонентом в русском языке в сопоставлении с английским” mavzuyidagi tadqiqot ishida rus va ingliz tillaridagi miqdor komponentli frazeologizmlarning nafaqat lingvomadaniy, balki psixolingistik va kognitiv xususiyatlari ham yoritilgan. Shuningdek, struktur-tipologik o‘xshashligi, olam lisoniy manzarasining frazeologizmlarda aks etishi masalasi tahlil qilingan. U ingliz va rus tillaridagi frazeologizmlar mazmun jihatidan o‘xhash bo‘lsa-da, ayrim grammatik xususiyatlari bir-biridan farq qilishini asoslab bergen. Masalan, rus tilidagi как две капли воды (ikki tomchi suv kabi) va ingliz tilidagi as a like as two peas in a pod (bir novdadagi ikki no‘xot kabi) frazeologizmlari semantik jihatdan umumiyl ma’noga ega bo‘lsa-da, ularning tarkibiy tuzilishi bir-biridan farq qilishi va xilma-xil obrazli asoslarga ega ekanligini keltirib o‘tadi[8:8].

M.L.Kavshova “Семантика и pragматика фразеологизмов (лингвокультурологический аспект) mavzuyidagi doktorlik dissertatsiyasida frazeologizmlarning semantikasi va pragmatik xususiyatlarini yoritish bilan bir qatorda ularni til va madaniyatning muhim belgisi sifatida talqin etgan. Uning fikriga ko‘ra frazeologizmlar lingvistikating obyekti bo‘lib, lingvokulturologiya uning o‘ziga xosligini ko‘rsatib beradi. Tadqiqotchi frazeologizmlarning semantikasi va pragmatikasini aniqlashda ularni birinchi navbatda lingvomadaniy aspektida o‘rganish lozimligini, frazeologizmlar til va madaniyatning birlashuvidan hosil bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan.

Rus tilshunosligidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, frazeologizmlarni lingvomadaniy aspektida o‘rganishda, asosan, ikki til materiallarini qiyoslash orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ayniqsa bu muammo A.M.Saryan, Li Yanchun, E.N. Denmuhammedova, T.Y Borisova, A.V.Urazmetova kabi tilshunoslarning dissertatsiyalarida maxsus tadqiqot obyekti sifatida tekshirilgan.

Boshqa tillardagi frazeologizmlar ham bugungi kunda turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Xususan, P. Skanderaning “Phraseology and culture in English” nomli kitobida ingliz madaniyatining frazeologizmlarda aks etishi masalasi o‘rganilgan. Kitob 17 bo‘limdan iborat bo‘lib, har bir bo‘limda muayyan bir leksik birlik va u ishtirokida hosil bo‘lgan frazeologizmlar ketirilib, semantik xususiyatlari ochib berilgan.

Tilshunoslikda ingliz tilidagi frazeologizmlar boshqa tillardagi frazeologizmlar bilan qiyoslab o‘rganilgan tadqiqotlar ham mavjud. Jumladan, F.M. Mamatova, M.A.Rajabova, F.S.Azizova, L.E.Xolmuradova, R.I Zaripova kabi tilshunoslarning tadqiqot ishlari bunga misoldir.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotlar dunyo tilshunosligida frazeologizmlarning lingvomadaniy aspektida o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlar turlicha ekanligidan dalolat beradi. Tilshunoslikka kirib kelgan ushbu yangi soha, lingvokulturologiyaga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlari turli xalq vakillarining tili, madaniyati, urf-odat va an’analari bilan tanishishga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida ko‘p tillardagi frazeologizmlar o‘zaro qiyosiy o‘rganilgan bo‘lsa-da, arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvomadaniy jihatlari hali tadqiq etilmagan. Lingvokulturologiya tilshunoslikning alohida yo‘nalishi sifatida vujudga kelganidan beri ushbu sohadagi dolzarb masalalar tilshunoslarning diqqat markazida turmoqda. Bu esa o‘z navbatida tilshunoslар oldida turgan bir qancha ustuvor vazifalarni belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent, 2019. – 248 b.
2. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М., Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.
3. Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 140-161.
4. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – М., Изд-во лит-ры на иноязыках, 1956. – 259 с.
5. Огольцов В.М. Семантизация культурного компонента языковой единицы в учебном словаре устойчивых сравнений / В.М. Огольцов // Словари и культуроведение. – М., 1982. – С. 130-137.
6. Добровольский Д. О. Типология идиом // Фразеография в Машинном фонде русского языка. – М., 1990. – С.71.
7. Уразметова А.В. Лингвокультурологический аспект изучения топонимов в составе фразеологических единиц (на материале английского и французского языков).. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2006. – 196 с.
8. Борисова Т.Ю. Лингвокультурологический анализ фразеологических единиц с числовым компонентам в русском языке в сопоставлении с английским. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М., 2009. – 19 с;